


2023-yil yanvar-fevral oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyatida jami **897,7 mlrd. so‘mlik** qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **92,1 %** ni tashkil etdi.




2023-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi foizda



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxona va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.



Ma’lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2023-yil yanvar-fevral oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari, hajmi



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2023-yil 1-mart holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,7 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 2,7 mingtani tashkil etib, o'tgan 2022-yilning mos davriga nisbatan 531 taga kamaygan.

2023-yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurilish ishlari hajmi 2,3 martaga oshib jami qurilishdagi ulushi 67,7 % ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning yanvar-fevral oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 76,7 % ni tashkil etdi.




Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalarini soni, birlikda

	holatiga ko‘ra:		o‘tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.03.2022-yil	01.03.2023-yil	
Samarqand viloyati	3 323	2 792	-531
Samarqand sh.	1 137	1 145	8
Kattaqo‘rg‘on sh.	127	109	-18
tumanlar:			
Oqdaryo	163	124	-39
Bulung‘ur	74	53	-21
Jomboy	134	110	-24
Ishtixon	142	91	-51
Kattaqo‘rg‘on	137	115	-22
Qo‘shrabot	70	69	-1
Narpay	84	68	-16
Payariq	278	216	-62
Pastdarg‘om	308	202	-106
Paxtachi	73	57	-16
Samarqand	153	111	-42
Nurobod	61	58	-3
Urgut	241	153	-88
Toyloq	141	111	-30



Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi foizda 01.03.2023-yil holatiga



Ma’lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan hududlar Samarqand shahri 41,0 %, Payariq 7,7 % va Pastdarg‘om 7,2 % tumanlaridir.

2023-yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **146,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **76,5** % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **16,4** % ni tahskil qildi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, foizda

19,9

16,4



2022-yil yanvar-fevral

oylarida


2023-yil yanvar-fevral

oylarida

Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **76,1** %), Pastdarg‘om tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,6** %), Samarqand tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **8,0** %), va Jomboy tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,7** %) tumanlarga to‘g‘ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, foizda



Kichik korxona va mikrofirmalar

■ 2022-yil yanvar-fevral oylarida

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2023-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko‘payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **71,9 %** bajarilib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **7,6 %** punktga ko‘payish kuzatildi.


Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **104,0 %** ni tashkil etgan holda **645,8 mlrd. so‘m** miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **11,7 %** ni tashkil etib, **105,0 mlrd. so‘m** miqdorida qayd etildi. 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **63,4 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi, foizda

mlrd. so'm




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **40,1** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **184,6** % ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,5** % ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **857,6** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **90,0** % ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **95,5** % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, foizda

**2023-yil
yanvar-fevral
oylarida**



davlat mulki

nodavlat mulk

**2023-yil
yanvar-fevral
oylarida**

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qrollantirish ishlari ulushi

2023-yil yanvar-fevral oylarida

68,3 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **68,3** % ini yoki **613,4** mlrd. so'mni tashkil etgan.

23,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **146,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi, jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **23,8** % ini tashkil etdi.

59,3 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **363,9** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **59,3** % ini tashkil etdi.

16,9 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **103,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **16,9** % ini tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2023-yil yanvar-fevral oylarida**

	qurilish ishlari hajmi mlrd. so‘mda	o‘sish sur’ati, foizda	umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari mlrd. so‘mda
Samarqand viloyati	897,7	92,1	613,4
Samarqand sh.	272,4	101,0	233,1
Kattaqo‘rg‘on sh.	14,6	94,9	14,1
tumanlar:			
Oqdaryo	69,4	96,6	48,5
Bulung‘ur	24,6	97,0	17,2
Jomboy	44,6	98,1	29,4
Ishtixon	40,0	91,8	31,9
Kattaqo‘rg‘on	23,2	85,0	20,9
Qo‘srbabot	19,9	94,8	15,9
Narpay	23,1	87,1	20,2
Payariq	56,5	92,7	20,3
Pastdarg‘om	43,8	93,3	42,9
Paxtachi	17,0	84,5	13,9
Samarqand	46,5	82,6	22,7
Nurobod	9,0	80,6	8,1
Urgut	47,7	85,4	26,4
Toyloq	145,4	82,1	47,9

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, foizda

2023-yil yanvar-fevral oylari

2,9



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

68,2



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

28,9



Bino va inshootlarni
qurilishi

2022-yil yanvar-fevral oylari

4,5



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

27,7



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

67,8



Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Ulushi, foizda

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,1** % ni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-fevral oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **9,5** % punktga kamayish kuzatildi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulushi 2022-yilning yanvar-fevral oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **4,5** % punktga kamayib, **58,1** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022-yilning yanvar-fevral oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **14,0** % punktga ko‘payib **39,8** % ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Ulushi, foizda

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **23,3 %** ni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **3,6 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,7 %** ni tashkil etib **3,1 %** punktga kamaydi.



2023-yil
yanvar-fevral oylarida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari


12



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ulushi, foizda

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik korxona va mikrofirmalar hissasi **100 %** ga to‘g‘ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **14,6 %** punktga ko‘payish kuzatildi.



2023-yil
yanvar-fevral oylarida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari

13



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023-yil yanvar-fevral oylarida

Eng yuqori hajm (mlrd. so‘m)

Samarqand sh.
272,4


1

2

Toyloq
145,4

Oqdaryo
69,4

3



Eng kichik hajm (mlrd. so‘m)

Nurobod
9,0

Kattaqo’rg’on sh
14,6

2

Paxtachi
17,0

3



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo‘limi**

Aloqa telefoni: (66) 235-60-82

2023-yil
yanvar-fevral oylarida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari

15